

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SAIDOV OTABEK SHUXRATOVICH

**MINTAQA INFRA TUZILMASINI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 - Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Saidov Otabek Shuxratovich. Mintaqa infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Xorazm viloyati misolida).....	3
Саидов Отабек Шухратович. Эконометрическое моделирование развития региональной инфраструктуры (на примере Хорезмской области).....	29
Saidov Otabek Shuxratovich. Econometric modeling of regional infrastructure development (on the example of the Khorezm region).....	59
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	63

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SAIDOV OTABEK SHUXRATOVICH

**MINTAQA INFRA TUZILMASINI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 - Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4397 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmetov Baxtiyar
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xatamov Ochildi Kurbanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rajapov Alibek Xushnodbekovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____: _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, PhD., dotsent

U. R. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi mintaqaning barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki, mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishi mavjud iqtisodiy va tabiiy resurslarning imkoniyatlariga asoslanib, hududlar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik faoliyatni ta'minlashga asoslanadi. Ularning o'zaro faolligini ta'minlashda bevosita infratuzilma soha sifatida yetakchi o'rinni egallamoqda. Agar rivojlangan infratuzilmasi haqida gapiradigan bo'lsak, bu borada kichik shaharlarga e'tibor qaratish lozim. 2023-yil mart oyida Amerikaning US News jurnali AQShning turli shaharlaridagi eng rivojlangan 150 ta hududni tahlil qildi va mamlakatda yashash uchun eng yaxshi joylarni aniqladi. Hududlar aholini ro'yxatga olish byurosi, mehnat departamenti va muharrirlarning o'z manbalaridan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda taxmin qilingan¹. Shunday ekan, infratuzilmani rivojlanishi hududlar iqtisodiyotini taraqqiy qildirishni taqozo qiladi. Ushbu sohani samarali rivojlanishini ta'minlash esa ushbu sohani rivojlanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirishni taqozo qiladi.

Jahonda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun infratuzilmani tashkil etish va samarali keng taraqqiy qildirish yuzasidan qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mintaqa infratuzilmasi tarkibi va uning tarkibiy xususiyatlarini tadqiq qilish, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda chuqur ilmiy izlanishlar bajarilmoqda.

Yangi O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish borasida keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu borala "Respublikada ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlariga qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish, shu asosda aholi bandligini ta'minlash va ularning turmush darajasini yanada yaxshilash"² kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarish o'z navbatida mintaqalarda infratuzilma rivojlanishining hozirgi holati tahlilini amalga oshirishni, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilishni va mintaqa infratuzilmalarini rivojlanishini ekonometrik modellari asosida baholashni taqozo qiladi. Bu borada esa mintaqalarda infratuzilma rivojlanishini ekonometrik baholash bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi "2022-

¹ <https://secondwindeb5.com/articles/best-us-cities-2024/>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 10-январдаги "2020-2022-йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4565-сон қарори. // Манба: <https://lex.uz/docs/5188512>

2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi "2020-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4565-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4864-son qarorlari va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda hududlar infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirish va uning imkoniyatlari kengaytirish yuzasidan D.Medouz, J.Randers, P.Rozenshteyn-Rodan, P.Samuelson, V.Nordxaus R.Nurks, A.Xirshman, U.Rostou, X.Zinger, Sh.Bikram, F.Daniel kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar³.

MDH mamlakatlari olimlaridan esa R.Azieva, A.Maxoshev, I.Raxmeeva, N.Ivanova, A.Gorbunova, P.Рыхов, Т.Kashina, A.Masharova, N.Sbrodova, N.Kojuxov, X.Abdukodirov, N.Polyakova, A.Kizim, L.Golovanova, M.Danilchuklar⁴

³Samuelson P.A. Economics / P.A.Samuelson, W.D.Nordhaus. – NewYork: McGraw-Mill, 1998. – 781 p; Meadows D., Meadows D., Randers J. The limits to growth: the 20-year update. - Chelsea Green Pub., 2004. - 338 p; Rosenstein-Rodan, P. Notes on the theory of the «Big push». Economic development for Latin America / P. Rosenstein-Rodan. - New York, 1961, pp.57-81; BikramShahi. Impact of Infrastructure Development on Society: A Case Study of the Narayan Municipality ward No. 1, Dailekh. Exam Roll No: 281391 T.U Registration No: 6-2-55-809-2004 Central Department of Rural Development Faculty of Humanities & Social Sciences Tribhuvan University Kathmandu, Nepal. August, 2012, p 6.; Daniel F. R. Quality Infrastructure: Ensuring Sustainable Economic Growth .the Center for Strategic and International Studies (CSIS). January 2017. – p. 4.

⁴ Азиева Р.Х., Махосhev А.Х. Роль инфраструктуры нефтекомплекса в формировании региональной политики и устойчивого развития территорий // Экономические науки. 2010. №12 (73). - С. 297-300; Рахмеева И.И. Региональные особенности развития и пространственной организации производственной инновационной инфраструктуры: дисс...канд. экон. наук/ 08 00 05. Рахмеева Ирина Игоревна. – Екатеринбург, 2014. – 180 с; Иванова Н.А. Классификация объектов региональной инфраструктуры // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. 2014, №1 (37). – с. 38-43; Иванова Н.А. Теоретические аспекты понятия инфраструктуры региона // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение, № 4(32), 2012, с. 30-36; Горбунова А.Ю. Региональная инновационная инфраструктура и оценка значимости ее элементов, [Электронный ресурс] // Управление экономическими системами. 2014. №7 (67). С.1-14. Режим доступа: <http://uecs.ru/uecs67-672014/item/29922014-07-25-07-> (дата обращения 20.03.2015); Пыхов П. А., Кашина Т.О. Инфраструктура как объект экономических исследований // Журнал экономической теории. – 2016. - №1. С.39-46. // <http://www.uiec.ru/content/zhurnal2015/05Pihov.pdf>; Машарова А.О., Сбродова Н.В. Роль инфраструктуры в региональном развитии // Гуманитарные научные исследования. 2017. № 2 [Электронный ресурс]. URL: <http://human.snauka.ru/2017/02/19887> (дата обращения: 14.09.2020); Кожухов Н.И. Формирование инфраструктурных кластеров в многолесной зоне рф в интересах эффективного освоения регионального экономического пространства//Лесотехнический журнал. 2014. №4. –с. 302-309; Абдукодиров Х.А. Теоретические основы развития рыночной инфраструктуры в трансформационной экономике Республики Таджикистан: автореф. дисс...канд. экон. наук / 08 00 01. Хайрулло Абдусаломович Абдукодиров. - Худжанд, 2012 / <http://www.dissercat.com/content/investitsionnoe-obespechenie-razvitiya-proizvodstvennoiiinfrastruktury-transformiruemoi-ekon#ixzz5ZXJWID2J>; А.М. Атрощенко, В.Л. Берестов, Н.А. Булхов, О.В. Сафронова.

tadqiqotlarida mintaqa iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda mintaqalar infratuzilmasi va uni modellashtirish masalalari I.Kayumova, X.Normurodov, Sh.Sharifxo'jayev, M.Voxidova, N.Sapayeva kabi olimlar ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan⁵.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda mintaqa infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirishning ilmiy-uslubiy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqa infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqa infratuzilmasi: ularning tarkibi va xususiyatlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilish;

mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy jihatlarini asoslash;

mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

transport infratuzilmasi misolida mintaqa infratuzilmasi rivojlanishining hozirgi holati tahlilini amalga oshirish;

mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va ularning ta'sirini baholash;

mintaqa infratuzilmalarini rivojlanishini ekonometrik modellari asosida baholashni amalga oshirish;

Инфраструктура как фактор эффективного функционирования субъектов хозяйственной деятельности // Вестник Брянского государственного технического университета. – 2016, № 1(49). – с. 153-158; Полякова Н.Ф. Производственная инфраструктура региона: теоретические аспекты к изучению. // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. - 2013. - №6. – С.60-63; Кизим, А.А. Факторы и условия социально-экономического развития региона: инвестиции, инфраструктура, проекты (на примере Краснодарского края): монография / А.А. Кизим, С.М. Саввиди, П.А.Солахов // <https://customsexpert.ru/articles/retsenziya-na-monografiyu.htm>; Голованова Л. А., Данильчук М. А. Зарубежный опыт реформирования транспортной инфраструктуры территорий // «Ученые заметки ТОГУ» Том 8, № 2, 2017. 231-237 с;

⁵ Kayumova I. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. ... dis. –T.:, 2012. - 289 b; Shodiev T. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o'sish sifatini oshirish// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –T.: 2011, № 1., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr). A.O'lmasov, A.Vaxobov. TDIU. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2014. -424 b; Gafurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoreferat. iqt.fan.dok. - T.: 96 b; Kayumova I.O. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. ... dis. –T.:, 2012. – 289 b; Normurodov X.E. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz; Karimqulov J.I. Xitoyda erkin iqtisodiy hududlar orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmi // Moliya va bank ishi. 2019 yil, №3. 117-127 b; Sharifxo'jayev Sh.O., Voxidova M.X. Mamlakatimizda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning zaruriyati// Iqtisod va moliya. 2018, №5. 61-66 b., Sapayeva N.K. Mintaqalardagi iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlashda infratuzilmani rivojlantirish yo'llari. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch: UrDU, 2023.

mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirishda infratuzilmani rivojlantirishning ekonometrik mezonlarini takomillashtirishni amalga oshirish;

Xorazm viloyati infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarini ekonometrik baholashni tadqiq qilish;

Xorazm viloyati iqtisodiyotining infratuzilma tarmoqlarini rivojlanish istiqbollari aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyati mintaqasining infratuzilma sohasi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Xorazm viloyati mintaqa infratuzilmasini rivojlanishini modellashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, induksiya, deduksiya, SWOT-tahlil, anketa-so'rovi, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik yondashuv, abstraktlashtirish, modellashtirish va prognozlashtirish usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqaviy infratuzilmaning ijtimoiy, muhandislik-texnik, innovatsion va ekologik infratuzilma kabi tashkiliy shakllaridan samarali foydalanishning mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan;

mintaqa infratuzilmasi imkoniyatlarini yuqori ($M_{II} \geq 1$), o'rta ($0,7 \leq M_{II} \leq 0,9$) va quyi ($M_{II} \leq 0,6$) darajalardagi iqtisodiy-statistik baholash usullari taklif qilingan.

Xorazm viloyati hududlarini infratuzilma salohiyati asosida segmentatsiyalash ko'rsatkichlari asosida infratuzilmani rivojlantirishning sobit ta'sir (FEM) va tasodifiy ta'sir (GLS) ekonometrik modellari ishlab chiqilgan;

Xorazm viloyati iqtisodiyotining infratuzilma tarmoqlarining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mintaqada iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirishning algoritmik modeli tadqiq qilingan;

mintaqada infratuzilmaning rivojlanganlik darajalarini qiyosiy baholash metodikasi taklif etilgan;

mintaqada samarali infratuzilmani ta'minlovchi iqtisodiy modelini yaratish imkoniyatlari asoslangan;

Xorazm viloyatida infratuzilmani rivojlanishining 2030-yilgacha mo'ljallangan istiqbollari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan nazariy va metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali jumladan, Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va uning hududiy boshqarmasi ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi, xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mintaqa iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirishning samarali usullarini shakllantirishda hamda ulardan optimal foydalanish mezonlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Xorazm viloyati hokimligi, viloyatdagi zamonaviy korxonalar va mahalliy hokimliklarning infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida "Mintaqa iqtisodiyoti", "Infratuzilma iqtisodiyoti" va "Turizm infratuzilmasi" kabi fanlardan o'quv dasturlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyati mintaqasi infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqaviy infratuzilmaning ijtimoiy, muhandislik-texnik, innovatsion va ekologik infratuzilma kabi tashkiliy shakllaridan samarali foydalanishning mualliflik yondashuvlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyundagi 06-15-09/5555-son-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi mintaqada infratuzilma sohasini rivojlantirishga qaratilgan optimal dasturlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

mintaqa infratuzilmasi imkoniyatlarini yuqori ($M_{II} \geq 1$), o'rta ($0,7 \leq M_{II} \leq 0,9$) va quyi ($M_{II} \leq 0,6$) darajalardagi iqtisodiy-statistik baholash usullari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyundagi 06-15-09/5555-son-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi mintaqada infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini o'rtacha 3-5 foizga oshirish imkonini bergan;

Xorazm viloyati hududlarini infratuzilma salohiyati asosida segmentatsiyalash ko'rsatkichlari asosida infratuzilmani rivojlantirishning sobit ta'sir (FEM) va tasodifiy ta'sir (GLS) ekonometrik modellari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyundagi 06-15-09/5555-son-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif asosida Xorazm viloyati mintaqasida samarali infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ta'sir qiluvchi strategiyalaridan samarali foydalanishga erishilgan;

Xorazm viloyati iqtisodiyotining infratuzilma tarmoqlarining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyundagi 06-15-09/5555-son-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilish Xorazm viloyati mintaqasida infratuzilma tarmoqlaridan samarali foydalanishga qaratilgan optimal qarorlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 10 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi umumiy hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida mintaqqa infratuzilmasi: ularning tarkibi va xususiyatlari, mintaqqa infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy jihatlari va mintaqqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan.


Mamlakat iqtisodiyoti infratuzilmasini rivojlantirish modernizatsiya qilish sur‘atlarini oshirishga qaratilib, iqtisodiy o‘sishning ta‘minlovchi omil sifatida qaraladi. Chunki, infratuzilmani rivojlantirish mamlakatlar va mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. shlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlarga mos ravishda javob beradi. Infratuzilmani samarali rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu bo‘yicha davlat tomonidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Infratuzilma iqtisodiyotni rivojlantirishda alohida o‘rin egallaydi. Chunki, uning asosi ishlab chiqaruvchi kuchlar holati, hududiy mehnat taqsimoti va moddiy ishlab chiqarish sohasi samaradorligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mintaqa infratuzilmasi mintaqaviy iqtisodiy kompleksning ajralmas tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, hududiy rivojlanishni samarali boshqarish, uning barcha sohalari va faoliyat turlarining faoliyat yuritishi uchun umumiy shart-sharoitlarni yaratishni ta‘minlaydi. Infratuzilma iqtisodiy kategoriya sifatida xizmatlarni ishlab chiqarish, ko‘rsatish va iste‘mol qilish bilan bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiradi. **Infratuzilma** - moddiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish sohasi va aholiga bevosita xizmat qiluvchi iqtisodiy tarmoqlarning funksional va hududiy birikmasidir.

Mintaqaviy infratuzilma ma‘lum bir hududda joylashgan va moddiy ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlari, noishlab chiqarish sektori muassasalari va ushbu hudud aholisiga mahsulotlarni tashish va saqlash, axborot uzatish, odamlarning harakatlanishi, moddiy resurslar, shu jumladan suv, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta‘minlash xizmatlarini ko‘rsatadigan obyektlarni o‘z ichiga oladi. Mintaqaviy infratuzilma mintaqalararo iqtisodiy munosabatlar tizimining elementi sifatida tumanni tashkil etuvchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, mintaqqa infratuzilma sohasi moddiy ishlab chiqarishning samarali ishlashi, barcha turdagi tovarlar va resurslarning erkin harakatlanishi, shuningdek mintaqadagi aholining normal hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta‘minlaydigan tuzilmalar va faoliyat turlari majmuini anglatadi. Birgalikda infratuzilma unsurlari ushbu hududning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Iqtisodiyotning jadal rivojlanish yo‘liga o‘tishi butun infratuzilma tizimi va uning alohida unsurlari darajasining oshishiga olib keladi. Mintaqa infratuzilmasi iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va alohida hudud aholisi hayotini ta‘minlash uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi. Bu esa turli obyektlar faoliyati bilan bog‘liq moddiy unsurlar va ishlab chiqarish munosabatlarini anglatadi.

Shunga asosan, mintaqa iqtisodiyotida infratuzilma tarkibi va komponentlari quyidagi qismlarga ajratiladi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotida infratuzilma tarkibi va komponentlari⁶

Ushbu rasmga asosan, mintaqa infratuzilmasi mintaqaning iqtisodiy faoliyatini ta'minlash va aholining yashash shart-sharoitini yaxshilash uchun xizmat qiladigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar majmuini aks ettiradi.

Bugungi kunda infratuzilmani tarmoq sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uni huquqiy va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish asosiy yo'nalish sifatida iqtisodiyot tarmoqlarini taraqqiy qildirishga qaratiladi. Infratuzilma tushunchasi turlicha talqin qilinadi.

Shuningdek, mintaqa infratuzilmasi - hududda tarixan moliyaviy, iqtisodiy va davlat omillari oqimi ta'sirida shakllangan iqtisodiy tizim ombori bo'lib, u davlat organlarining samarali faoliyat yuritishi, shuningdek, mintaqadagi boshqa virusli va virusli bo'lmagan tuzilmalar faoliyati uchun zarur ongni yaratadi. Tizim sifatida mintaqaviy infratuzilma o'xshash belgilarni aks ettiruvchi elementlardan shakllantiriladi va funksional, iqtisodiy, texnik va ijtimoiy kabi yo'nalishlar bo'yicha tasniflanishi mumkin.

Infratuzilmani, omborlarni va mintaqaviy infratuzilmaning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish bo'yicha tadqiqotlarning yuqori sifatli natijalari mintaqa uchun infratuzilma tarkibiy elementlariga oid yondashuv ilgari suriladi (2-rasm).

⁶ Muallif ishlanmasi.

Ijtimoiy infratuzilma - hudud aholisining ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlaydi

Muhandislik-texnik infratuzilma - davlat xizmatlarini ko'rsatadi, shuningdek, hududda davlat hokimiyati va boshqaruvi subyektlariga mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi

Innovatsion infratuzilma - qabul qilinadigan iqtisodiyotning barcha qismlarida mintaqaning rivojlanishi uchun asos yaratadi

Ekologik infratuzilma - aholining hududlarda yashashi uchun ekologik toza sharoitlarni qo'llab-quvvatlaydi

2-rasm. Mintaqaviy infratuzilmaning tashkiliy shakllari⁷

Ushbu 2-rasmga asosan, birgalikda hududiy infratuzilmaning barcha elementlari mintaqa uchun iqtisodiy tizimning yaxlitligini ko'rsatib, ma'lum bir hududning rivojlanish bosqichini aks ettiradi. Mintaqaning mahalliyashtirilgan ombor infratuzilmasi elementlari aniq aqlli va bundan tashqari, elementlar turli infratuzilmalar uchun omborlar bo'lishi va shu tarzda saqlanishi mumkin.

Shuningdek, hududiy infratuzilmaning bevosita shakllanishi bu jarayonning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini aks ettiradi. Hududda infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb aniq muammolari va ularning mohiyatini shunday tasdiqlash mumkinki, bozorga hissa qo'shadigan joriy hududiy infratuzilmani shakllantirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri sifatida ma'lumot olishni talab qiladi.

Darhaqiqat, infratuzilmani har bir mintaqa darajasida uni keng taraqqiy qildirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirish hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompleks jarayon bo'lib qaraladi.

Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi alohida o'rin tutadi. Darhaqiqat, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi juda boy va turli xil. Ushbu tajribani o'rganish va o'z sharoitimizga moslashtirish orqali mintaqalarimizning iqtisodiy o'sishini tezlashtirishimiz, aholining turmush darajasini oshirishimiz mumkin.

Natijada, mintaqada infratuzilma sohasini rivojlantirishga qaratilgan optimal dasturlarni ishlab chiqishga erishiladi.

⁷ Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda O‘zbekiston uchun xulosalarni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- O‘zbekiston mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan quyidagilarni o‘rganishi mumkin:

- uzoq muddatli milliy strategiyalarni ishlab chiqish va ularga qat’iy rioya qilish.
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishni kengaytirish.
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan faol foydalanish.
- malakali kadrlar tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish.
- ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

Bundan tashqari, O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘ziga xos infratuzilma rivojlanish modelini yaratishi kerak.

Dissertasiyaning “**Mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi holati**” deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqa infratuzilmasi rivojlanishining hozirgi holati tahlili (transport infratuzilmasi misolida), mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar va mintaqa infratuzilmalarini rivojlanishini ekonometrik modellari asosida baholash amalga oshirilgan.

Mintaqa infratuzilmasi rivojlanishining hozirgi holati tahlili ko‘p omillarga bog‘liq va mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim masalaridan biri salohiyatining mavjudligidir. Transport salohiyati holati transport, muhandislik, ijtimoiy sohalar va axborotlar kabi tarkib asosida keng taraqqiy qilib boradi. Mamlakatimizda ham transport salohiyatini rivojlantirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarida “Avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 mlrd. AQSh dollariga yetkazish”, deb ta’kidlab o‘tilgan⁸. Transport sohasini rivojlantirish uning iqtisodiy faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq, transportning o‘zi ko‘pincha iqtisodiy faoliyat darajasini rag‘batlantiradi⁹. Transport sohasining samarali rivojlanishi uning butun majmuiga bog‘liq bo‘lishi lozim. Transport majmui faoliyati va rivojlanishi uchun ishlab chiqilgan kompleks maqsadli dasturlarga muvofiq boshqariladi, bu esa milliy darajada yagona boshqaruv, nazorat va moliyaviy yordamni talab qiladi¹⁰.

Mazkur sohani rivojlantirish transport salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mintaqada transport vosita turlaridan foydalanish kerak. Transport salohiyati tahlili mamlakatimiz mintaqalari va Xorazm viloyati sohasiga oid ko‘rsatkichlar holati va ularning o‘zgarish dinamikasi bilan belgilanadi. Transport salohiyati ushbu sohaning rivojlanish holati, mavjud imkoniyatlari va keng taraqqiy qilish jihatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida avtotransport sohasining asosiy ko‘rsatkichlari tarkibi tashilgan yuklar hajmi (ming t.), yuk aylanmasi hajmi (mln. t-km.), tashilgan yo‘lovchilar soni (ming kishi) va yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi-km.) kabilardan

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

⁹ Norchayev A.N., Umirova D.S. Turizmida transport xizmatlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2020. - 5 b.

¹⁰ Терёшиной Н.П., Левицкой Л.П., Шкуриной Л.В. Экономика железнодорожного транспорта: учебник. - М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2012. - с. 15.

iborat bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatida avtotransport sohasining asosiy ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot¹¹

Ko‘rsatkichlar	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Tashilgan yuklar, ming t.	18529,0	18668,0	19382,0	24366,0	27907,0	30526,0	34089,6	34528,1	36673,8	38561,0	36606,3	35805,7	37766,6	38931,1
Yuk aylanmasi, mln. t-km.	372,4	411,5	447,7	489,4	513,6	543,9	570,0	620,9	703,6	751,2	862,8	1025,8	1065,6	1134,3
Tashilgan yo‘lovchilar, ming kishi	257755,0	282694,0	295490,0	314434,0	327022,0	346309,0	362854,0	371090,0	381004,0	394959,0	368392,2	437586,3	448361,7	459904,1
Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km	4737,9	5112,8	5400,5	5737,9	6092,7	6541,4	6954,9	7122,1	7319,4	7556,5	6997,0	8086,1	8412,6	8571,9

Ushbu jadvalga asosan, viloyat bo‘yicha tashilgan yuklar 2010-yilda 18529,0 ming t.ni tashkil etgan bo‘lsa-da, 2023-yilga kelib esa 38931,1 ming t.ni tashkil etgan. Yuk aylanmasi hajmi 2010-yilda 372,4 mln. t-km. ga teng bo‘lsa-da, 2023-yilga kelib esa 1134,3 mln. t-km.ni tashkil etgan. Tashilgan yo‘lovchilar soni 2010-yilda 257755,0 ming kishiga va 2023-yilga kelib esa 459904,1 ming kishiga teng bo‘lgan. Yo‘lovchi aylanmasi miqdori 2010-yilda 4737,9 mln. yo‘lovchi-km. ni 2023-yilga kelib esa 8571,9 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil etgan.

Viloyatda transport salohiyatining asosini transport infratuzilmasi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish tashkil etadi. Ushbu soha texnik jihatdan qo‘yilgan standartlarga javob beradi va ushbu sektori tarkibida keng rivojlanib boradi. Transport sektori aholining ushbu soha bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida qaraladi. Ularni tarkibi aviakompaniyalar, avtomobil korxonalari, temir yo‘llar, yuk tashish va logistika firmalari va transport infratuzilmasini ta’minlovchi korxonalar guruhidan iborat bo‘ladi. Bu holatda transport sohasidagi korxonalarining faoliyati bevosita ushbu sohaning daromadlari va transport xizmatlari narxlarining o‘zgarishiga ta’sir qiladi.


Infratuzilma tizimlarida doimo ma’lum bir uzilishlar sodir bo‘ladi. Bu vaqtda umumiy yo‘qotishlarni va shu tarmoqda yuzaga kelgan muammo oqibatidagi mablag‘ yo‘qotishlarini hisoblash doimo muammoli vaziyat bo‘lib kelgan¹². Ishlab chiqarish

¹¹ Manba: www.xorazmstat.uz

¹² Normurodov X.E. Ishlab chiqarish infratuzilmalarida yuzaga keladigan muammolarni sinergetik ta’sirini baholash. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). - 201 6.

jarayonining ishlashini ta'minlaydigan moddiy sharoitlarga asboblarning mavjudligi va sifati, ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida va sifati, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni omborlar, transport tarmog'i, elektr va suv ta'minoti, aloqa vositalari va boshqalar kiradi¹³. Bu borada mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishga korxonalar va uning infratuzilma faoliyati ta'sir qiladi.

Viloyatning hozirgi rivojlanishga o'tishda infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu kategoriya hudud iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur o'zgarishlar ilg'or iqtisodiy ilmfanning yangi iqtisodiy voqealarni nazariy tushunish natijasida yuzaga keladi. Bu esa turli jarayonlarga o'tadigan omillarni aniqlashga imkon beradi. Bular sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa sohalar asosi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy taraqqiyotning infratuzilmani shakllantirish uchun ularning shakllanishiga kiritilishini talab qiladi. Iqtisodiy ong infratuzilmasi determinizmi o'zaro bog'liq omillarning o'zaro bog'liqligi orqali namoyon bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Mintaqada infratuzilmaga ta'sir qiluvchi omillar tarkibi¹⁴

Ushbu omillar o'rtasidagi munosabatlar bosqichini aks ettiradi. Tashqi infratuzilma faoliyati va vositachilik jarayonida rivojlanganlik qismi bilan bog'liq. Infratuzilmaning funksional xususiyatlari haqida ko'pgina ma'lumotlar mavjud.

¹³ https://stud.com.ua/22948/ekonomika/infrastruktura_pidpriyemstv

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Boshqa tomondan, infratuzilmaning mohiyati uni yaratuvchi tarkibiy qismlarning ichki tabiati va ularning ichki o'zaro ta'sirining tabiati bilan belgilanadi. Bu esa infratuzilma organlari va hokimiyatning ichki ta'siriga asoslanadi. Mintaqa infratuzilmasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Bular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xos bo'lgan omil bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'nalishlar demografik, milliy, etnik, ijtimoiy, psixologik va boshqa omillarga ajratiladi.

Infratuzilma rivojlanishida salbiy tendentsiyalar kuzatilmoqda. Xususan, o'rganilayotgan davrda ta'lim muassasalari soni, ommaviy va universal kutubxonalar va klub muassasalari, kasalxonalar va stadionlar tarmog'i kamaydi. Iqtisodiy omillarning ta'siri aholini xizmat ko'rsatish sohalari va iqtisodiy faoliyat turlarining moddiy elementlari bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi. Bu esa zaxiralarni topish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini, shuningdek, kelgusida rivojlanish ehtiyojlarini belgilaydi. Iqtisodiy hodisalarni iqtisodiy va matematik usullar asosida tahlil qilishda o'rganilayotgan ko'rsatkichlar va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi miqdoriy munosabatlarni ochib beradigan modellar alohida o'rin tutadi.

Ekonometrik modellarni yaratish uchun regression tahlil usullaridan foydalanishning zaruriy shartlaridan biri mustaqil bo'lganlar orasida chiziqli bog'liq o'zgaruvchilar (omillar) ning yo'qligi hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, mintaqa infratuzilmasini rivojlanishini ekonometrik modellashtirish uchun turli xil formulalardan foydalanish mumkin. Modelning turi va unga kiritilgan omillar (o'zgaruvchilar) tadqiqot maqsadiga, ma'lumotlarning mavjudligiga va tadqiqotchining tanloviga bog'liq bo'ladi.

Mintaqa infratuzilmasi imkoniyatlarini turli darajalardagi iqtisodiy-statistik baholash yondashuvlari taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqa infratuzilmasi imkoniyatlarini turli darajalardagi iqtisodiy-statistik baholash yondashuvlari¹⁵

№	Baholash darajalari	Baholashning statistik formulalari	Baholashdan kutiladigan natijalar
1	$M_{II} \geq 1$	<p>Infratuzilma investitsiyalarining YaIMdagi ulushi = (Infratuzilma investitsiyalari / YaIM) * 100%</p> <p>Infratuzilma xizmatlarining YaIMdagi ulushi = (Infratuzilma xizmatlaridan kelgan daromad / YaIM) * 100%</p> <p>Infratuzilmaning ish bilan ta'minlashga ta'siri = (Infratuzilma sohasida ishlovchilar soni / Umumiy ish bilan ta'minlanganlar soni) * 100%</p>	<p>Infratuzilmani eng samarador shakllari joriy qilinadi va barcha sohalar bilan bog'liqligi ta'minlanadi</p>
2	$0,7 \leq M_{II} \leq 0,9$	<p>Investitsiya samaradorligini baholash:</p> <p>Sof hozirgi qiymat (NPV) = Loyihadan keladigan kelajakdagi pul oqimlarining diskontlangan qiymatidan boshlang'ich investitsiyani ayirish orqali hisoblanadi.</p> <p>Ichki daromad normasi (IRR) = NPV ni nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.</p>	<p>Infratuzilma orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan oqilona qarorlar qabul</p>

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

